**Ўзбекистон Республикаси**
**Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги**

**Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат**
**Архитектура - Курилиш Институти**

**“Қурилишни бошқариш” факультети**
**“Касбий таълим” кафедраси**

# Диплом лойиҳасининг
# *ТУШУНТИРИШ ХАТИ*

**Мавзу: Рангтасвирда табиат (баҳор фасли) манзарасини тасвирлаш ва уни ўқитиш услуби.**

**Кафедра мудири: доц. Рахимов А.Қ.**
**Раҳбар: К.ўқт. Абраев К.Ш.**
**Бажарди:401-КТ(с)гурухи**
**талабаси Бердиев Н.**

**Самарқанд 2013 йил.**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ**

**«Қурилишни бошқариш» факультети**
**« Касбий таълим » кафедраси**

# ТУШУНТИРИШ ХАТИ

**Диплом лойихасининг мавзуси**

Рангтасвирда табиат (баҳор фасли) манзарасини тасвирлаш ва уни ўқитиш услуби

**Диплом лойихасини бажарувчи толиб (а)** Бердиев Нуъмон — (Ф.И.Ш.) — (Имзо)

**Кафедра мудири** доц: Рахимов А.К — (Ф.И.Ш.) — (Имзо)

**Раҳбар** к. ўқитувчи Абраев К.Ш — (Ф.И.Ш.) — (Имзо)

**Маслаҳатчилар** Менликулов А.Н — (Ф.И.Ш.) — (Имзо)

к. ўқитувчи Тўраев Ф.Т — (Ф.И.Ш.) — (Имзо)

**Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура Қурилиш Институти**

«Қурилишни бошқариш» факультети

«Касбий таълим» кафедраси

## ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН ТОПШИРИК

Бердиев Нуъмон
(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

**I. Диплом лойихасининг мавзуси** Рангтасвирда табиат (баҳор фасли) манзарасини тасвирлаш ва уни ўқитиш услуби.

Институт буйича 2012 йил «29.12. 246-У сон буйруқ асосида тасдиқланган.

**II. Диплом лойихасини бажариш учун маълумотлар** Табиат манзарасини чизиш учун керакли материалларни йиғиш фаслларининг бирини танлаб Табиат манзарасига оид маълумотлар тўплаш.

**III. Тушунтириш хатида келтириладиган:**

1. Мавзу буйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Манзара жанрининг халқ хўжалигидаги аҳамиятини таҳлилий асослаш учун бадиий адабиётлардан мавзу бўйича маълумотлар тўплаш.

2. Диплом лойихасининг назарий шакли ишланмалари Манзарани тасвирлаш жараёнларини оғзаки баён этиб, амалий кўрсатмалар бериб изоҳлаш.

3. Диплом лойихасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Табиат манзараси-ни тасвирланган уч кўриниши-ни, эскизи-ни бажариш.

4. Ўқув услубий қисми Табиат манзараси"-ни тасвирланган босқичма-босқич, қаламдан то ранггача бўёқсага ишланган расмни назарий ва амалий дарс ўтишнинг (2)-соатлик зал-й ўқитиш ус.ни баён этиш.

5. Диплом лойихаси бўйича хулоса қисми Битирувчи талабанинг шахсий хулосаси.

6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Табиат куйчиси Ўрал Тансиқбоев Афсона тўплари (Ю. Холменский)

**IV. Диплом лойихасининг таркиби ва график қисми:**

1. Табиат манзараси-ни „Эскизининг қоғозга ўлчамларига" асосан қаламда қоғоз (Ватман)га кўчириш

2. „Манзара"-нинг тугалланиш жараёнигача бўлган босқичма-босқич 1-варақ.

3. Графика қисми учун „Табиат манзара"-сини эскизини чизиш.

4. „Табиат манзара"-сини тасвирини „сув" бўёқда ишлаш

**V. Диплом лойихасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:**

| № | Диплом иши қисмлари | Бошланиши | Тугалланиши | Маслахатчилар | Изох |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг тахлили ва асослаш. | 1.03.13 | 25.03.13 | Абраев К.Ш | [signature] |
| 2. | Диплом иши назарий шаклининг ишланмалари. | 26.03.13 | 12.04.13 | Абраев К.Ш | [signature] |
| 3. | Диплом ишининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш. | 13.04.13 | 10.05.13 | Абраев К.Ш | [signature] |
| 4. | Ўқув услубий қисми. | 11.05.13 | 15.06.13 | Абраев К.Ш | [signature] |

**Изох:**

1. Диплом лойихаси «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида рахбар ёки маслахатчи томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра томонидан рухсат берилади.

**VI. Топшириқ берилган сана** 1.03.13. й.

**VII. Тугалланган диплом лойихасини топшириш санаси** 15.06.13

Диплом лойихаси раҳбари к. ўқит. Абраев К.Ш [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Топширик бажариш учун қабул қилинди Бердиев Н. [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Кафедра мудири доц: Рахимов А.К. [signature]
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

## Kirish

O’zbekiston iqlimi ta’siridagi ko’rinishlari, atrofini o’rab turgan tabiat ko’rinishlari shunday jonli shunday ishonarli chiqqanki, uni faqat sevimli shoirimiz H. Olimjon she’ri bilan badiiy tahlil qilib beraolamiz.

Bundan tashqari uyg’onish davrining buyuk siymosi musavvir K. Behzodning shogirdi Mahmud Muzahhibning shogirdi Mahmud Muzahhibning A. Navoiy portreti ham zamondoshlari tahsiniga sozovor bo’lgan va mohirono hazil mutoiba tarzida badiiy tahlil qilingan. Sharqning bu mumtoz musavvirining inson qiyofasini yaratish borasida tengsiz san’atkor ekanligi bir qancha portretlar orqali isbotlangan jumladan A. Navoiy, Sulton Husayn Bayqaro, Muhammad Shayboniyxon, Abdurahmon Jomiy kabi asarlarini misol keltirishimiz mumkin. Jahon madaniyati taraqqiyoti tarixidan shu narsa ma’lumki san’at milliy chegaralarini tanolmaydi. Tasviriy san’at Fransiska g’oyaning mashhur tarificha bu irqu millatlardan qat’iy nazar barchaga tushunarli bo’lgan insoniyatning “umumiy tilidir”.

Sharq mutaffakkirlari va shoirlari Qur’onni (bibliya) ham Injilni ham yaxshi bilgan. Qadimgi yunoniston va Arab dunyosi falsafiy tafakkurning eng yuksak namunalari bilan tanish bo’lgan buyuk hofiz Rudakiy va A. Navoiy xalq va elatlarning go’zalligi ma’naviy va madaniy qadriyatlaridan zavq olsak. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning farmoniga ko’ra 1997-yilda O’zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilganligi ham O’zbekiston Ziyolilari, o’quvchi yoshlarni jahondagi badiiy falsafiy estetik jarayonlari bilan oshna qilish borasida yana bir muhim qadam bo’ldi. Akademiya faoliyati O’zbekiston madaniyatining yanada boyishiga ma’naviy jihatidan boy va o’ziga xos tarzdan fikrlay oladigan ajoyib adabiy va badiiy did egasi bo’lgan insonlarni kamol toptirishga ko’maklashadi. Ishonch bilan aytish mumkinki bugun qayta uyg’ongan.

O’zbekistondagi san’at yakkalangan holda emas, balki butun jahon san’atining badiiy tamoyillari bilan o’zaro aloqada va bahamjihatlikda

taraqqiy etmoqda. Istiqbolda bunday aloqalar yana kengaymoqda va o'z samalarini bermoqda.

San'at-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (masalan, musiqada-tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishlari, uyg'unligi orqali, badiiy adabiyotda so'z, obrazlar orqali). Lekin shu bilan birga ular o'rtasida-tovushlar, ma'lum umumiylik mavjud.

# Mavzuni asoslash

## Mavzuni tahliliy asoslash

Mustaqiligimiz poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekiston buyuk davlatga aylantirishda ta'lim tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat texnika va texnologiya yutuqlarini ma'naviy jihatdan yutuq texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli odamlar hal etadi.

Kelajak taqdirimizda hal qiluvchi tasir ko'rsatadiga asosiy omil. Fan-texnika madaniyat marifat, ta'lim tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etishdir.

Shu bois barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida hozirgi davrda ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Mustaqillikka erishgandan buyon respublikamizda ta'lim-tarbiyaga oid davlat soyosatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun ko'p ishlar qilindi.

Ularning eng muhimlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazirlar mahkamis "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'rida 1998-yil 13-maydagi 203-qaroriga asosan "umumiy o'rta ta'lim, davlat ta'lim standartining tayanch, o'quv rejasida "Ma'naviyat" ta'lim sohasiga "odobnoma", talabaga bo'lgan munosabatiga, ya'ni talabada turli xolatlarda nomoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyati, uni alohida shahs yoki jamiyatdagi ijtimoiy bir rolni yoki vazifani bajaruvchi oddiy bir talaba sifatida ko'ra olishlariga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi qancha o'z individualligini anglasa va buni o'z faoliyatida e'tiborga olsa u shuncha  o'z talablaridagi o'ziga xoslikni ko'radi va undan o'zaro hamkorlikda to'g'ri foydalana olishga erisha oladi. Bugungi kunda o'qituvchi talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlik o'zaro

munosabat talabalar bilan yurakdan, ochiq gaplashganda, ulardan ayrim talabalarga nisbatan norozilik alomatlarini eshitamiz.

“O’qituvchi bizning fikrimizni etiborga olmaydi”, “Bizni haqorat qiladi”, “o’qituvchimiz bizni tushunishn xoxlamaydi” va hokazolar.

Ba’zi o’qituvchilar yaxshi bilimga ega, darsni ham talab darajasida olib boradi, lekin deyarli ko’pchilik o’qituvchilar ularni ham ko’rmaydilar. Negaki, ba’zi bir o’qituvchilar, talabaga tasviriy san’at sirlarini o’rgatish uchun, individual yondashib o’rgatayotganda talaba shaxsini hurmat hurmat qilmaydilar talabalar qalbiga yo’l topa olmaydilar. Ularni “ta’lim oluvchi obyekt” sifatida qabul qiladilar. Shuning uchun yuqorida aytganimdek o’qituvchi rahbarning ziyolilarga xos shaxsiy hamda kasbiy mahoratlarini talaba qalbiga yo’l top olib hunarini o’rgatib o’zidagi bor yaxshi xislatlarini nomoyon qila olsa talaba shaxsini “Ta’lim oluvchi obyekt” deb hadeb sen chizini bilmaysan, uni qila olmaysan deb, gapirmasdan, uning qalbiga yo’l topib yaxshi va hazil-mutoyiba gaplar bilan o’ziga yaqin tutib tushuntirsa undan o’zaro hamkorlikda foydalangan bo’ladi va o’qituvchidan ajralmaydigan, o’zini o’qituvchiga yaqin tutadigan, kasbiga qiziquvchi do’st orttiradi. Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish darajasi va yaqin istiqboli talablariga mushtarak kasbiy tayyorgarlikka ega mutaxassis kadrlar yetishtirish dolzarb muammodir.

Uzliksiz ta’lim tizimida muhim bog’ini hisoblangan o’rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining bosh maqsadi-mustaqil va ijodiy faoliyat ko’rsata oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh, o’zgaruvchan sharoitga moshlasha oladigan mutaxasis kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Tasviriy san’at o’ziga xos biro lam rassomlar esa yanada murakkab va sirli istedod sohiblari shu ma’naviy olamni tadqiq qilish, san’atshunosdan talent, madaniyat talab qiladi. Qisqasi go’zallik olamini yaratuvchi go’zal qalblar holatini tadqiq qilish uchun unga mos ma’naviy sof ruhiy toza insonlar bo’lishlikni taqazo etadi.

O’zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatidagi faoliyati, milliy memorchilik va shaharsozlik sohalarida yangi urflarni ochib berdi.

Huquq va erkinlik qo’lga olgan mustaqil davlatimiz, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o’rnatib, jahon hamjamiyati doirasida o’z orniga ega bo’ldi.

Yangi ijtimoiy va iqtisodiy dasturlar uning hayotiy qiyofasini o’zgartirib. Bu o’zgarishlarning eng yaqqol ifodasi bo’lmish ma’moriy inshoatlar, mustaqillikning yangi ma’naviy g’oyalarida yangi ijtimoiy buyurtma va qurilishning ilg’or usullari asosida yuzaga kela boshladi. Prezidentimiz I. A. Karimov yurtimizning hamma yerida me’moriy ishlari birdek rivoj topishini, har bir viloyat markazida “Turkiston” saroyidek muhtasham saroylar bo’lishini istar edim. Toki, yurtimiz go’zal, fayzli, erkin va adolatli yurt bo’lsin. Toki bizdan elga foydali yodgorliklar qolsin, bog’u-rog’lar qolsin, qalbni qoplaydigan ibratli so’zlar qolsin.

Toki, bizning bizdan olis avlodlarga ozod va obod vatan qolsin. Zamonaviy shaharsozlik amaliyoti ikki yo’nalishda, ya’ni sharq memorchiligining an’anaviy qonunlariga bo’ysungan hamda O’zbekistonning dunyo hamjamiyati saflariga sobiyqadamlik bilan yangilanayotganligini aks ettirgan, jahon memorchiligi yangi yutuqlarini namoyish etgan tarzda shakllandi. Zamonaviy binolarning konstruktiv tuzulishidagi o’ziga xos jihatlarini, ya’ni inshoatlar old qismlarida qalin oynalarning ko’p ishlatilishi, shuningdek yirik yaxlit hajmlarning nisbatan ko’payib ketishi mahobatli rang tasvir asarlari kamdankam hollarda memorchilikda qo’llanilishiga qaramasdan mahobatli rang tasvir ustalari shahar estetik qiyofasini shakllantirishda faol ishtirok etmoqdalar. Shuningdek, mahobatli bezak san’ati kelajak makonda interyerni estetik bezatish ishlarida dastgohli rang tasvir asarlari va amaliy san’at buyumlaridan foydalanish bilan-o’zida yangi elementlar ham mujassam etdi.

Mahobatli-devoriy bezak san'ati ustida olib borilgan tadqiqot ishlari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda nozirda ham uning ko'pgina turlari saqlanib qolgan. Bu vaqtga kelib, shuningdek, vitraj san'ati asarlari, shisha spool va kandakorlik buyumlarida ishlangan bo'rtmalarda makoniy kompozitsiyalar yaratish, koshunli nomoyonlar va bezakli plastika san'ati shakllandi. San'atning barcha turlari bu davrda keng ko'lamda rivojlanishiga qaramay, mahobatli eang tasvirda badiiy jarayon bir muncha qoniqarli va serharakatlik bilan kechdi. Bu davrda mahobatli rang tasvir sogasidagi bir muncha yorqin ishlar rassom B. Jalolov tomonidan yaratildi. O'ng yil mobaynida u aloqada ahamiyat kasb etuvchi bir qator turkum devoriy suratlar yaratdi.

Rassom 1993-yil Toshkentdagi "Turkiston" konsert saroyining ichki interyerida sharq lirikasi mavzusida ishlangan "Umar Hayyom tushi" asarida u kompozirsiyaning ajoyib plastic va rangli yechimiga erishgan. 1996-yilda Temuriy Tarixi davlat muzeyi interyerida ishlangan, ko'lami jihatdan ancha ixcham kompozitsiyada ham rassom aynan shu uslubni qo'llash.

1995-yil O'zbekiston xalqaro tarixi Davlat muzeyi ichki devorida u ilk marotaba yirik hajmda O'zbekiston tarixi va o'tmish madaniyati haqida retreprktiv tarzda himoya qiluvchi "Adabiyot gumbazli ostida" nomli kompozitsiya asarini yaratdi. Bu yana O'zbekiston ramziy g'oyasini ifoldalashda tarixiy davomiyligini, o'zining tarixiy va madaniy merosini e'lon qilishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Bu yirik asar o'tmishimizni tomoshabinlar ko'zi ongida buyuk vatandoshlarimiz siymolari, O'zbekistonning badiiy merosidagi shox asarlar, boy milliy tariximizni o'ziga xos bosqichlarini aniqlab keluvchi davlar gavdalanadi.

Tabiatga munosabat shu darajaga oboradiki, u insoniyat shaxsi madaniyatining muhim belgisi bo'lib qoladi. Bizning har birimiz sof havodan nafas olishni, ko'm-ko'k o'tlar ostida yastanib yotishni sevamiz.

Lekin buni hali tabiatga muhabbat deb bo'lmaydi. Tabiatga mehr-muhabbat uni tushinishdan, unga qaraganingda tabiiy hayotning yuksak go'zalliklarini anglagan tabiat bilan munosabatga kirishgan u bilan qo'shilib ketgan bir paytdan boshlanadi.

Shoir buni nechog'li go'zal ifodalab bergan

Tushlarimga kirdi diyorim,

Suv qo'ynida cho'milgan quyosh.

Yuz ohangli ko'klamzoring,

Quchog'idan ko'tarmasam bosh.

Tabiat ichki bir mehr bilan yongan g'amxo'rlik hissi insonda estetik zeb kasb etadi.

Insonda kuzatuvchanlik, sirgirdik, nazokatlikni tabiatan tarbiyalaydi. Tabiatni sevish uni tasvirlash uchun oddiy va aniq so'zlar topishga yordam beradi. Buni suyukli shoirimiz H. Olimjonning quyidagi she'rida o'z aksini topganini ko'ramiz.

Novdalarni bezar g'unchalar

Tongda aytib hayot otini

Va shabboda qurg'ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini

Har bahor ham, shu bo'lar takror.

Har bahor ham, shunday o'tadi.

Qancha tirishsam ham, bu beor

Yillar meni aldab ketadi.

Tabiatga munosabat ikki yo'sinda: insonning atrofidagi tabiatga munosabati orqali va uning ajralmas qismi bo'lgan o'z-o'ziga munosabati orqali nomoyon bo'ladi.

Chunki inson faqatgina ijtimoiy hodisa bo'libgina qolmay, balki biologic zot hamdir. Masalan: instinklar uning hayotida katta o'rin tutad. Biz ularni boshqarishni o'rganib olganmizmi? Ularga ega bo'lish insonning sezgirligi va yaxshiligi bilan yonma-yon boradian iroda va mardlikning belgisidir va oqibatda shaxs umumiy madaniyatining belgisidir.

Insonda tarbiyalangan tabiatni his qilishda biz nimanidir topamizki, u faqat tabiatdan zavqlanishgagina emas balki uni yaxshi tushunuvchi, hammasini ravshan ko'radigan hamda yer, o'rmon suv nima haqida gapirayotganini eshitadigan insonni ham zavqlanishga majbur qiladi. Bu haqda shoirlardan biri shunday deydi:

Kun qiziqarkan bodomzorlarda

Sof havodan simirsang tuyib

Bu serquyosh joyda azondan

Dimog' chog'lab kezganman suyib

“Tabiatni his qilish tabiatda kas etgan shaxs hayotini his qilishdir” degan edi Beruniy inson tabiatni shunchaki “Ilohiylashtirmaydi”. Tabiatni bilishda yanada olg'a va chuqurroq boorish, tabiatni o'zidan unga inson bo'lish imkonini bergan narsani topish. Beruniy aytganidek “insonga xos madaniy qatlam”ni topish muhimdir.

Tabiat obrazi ko'p qirralidir. Vatan obrazi ham shunday. Tundra shimolliklar uchun gul, tog' yoki sahro janubliklar uchun aziz.

Sahro farzandi uchun go'zallik-chi. Tayga kishasi uchun go'zal bo'lgan o'rmon go'zalligidan ham emas. Saksovul obrazi esa qayin obrazi ruslarga qanchalik insoniy zavq bersa shunchalik zavq beradi. Turkman, o'zbek, qozoq, qirg'izda saksavul obrazi olam jahon tuyg'u hosil qilishga qodir. Saksovul qumloq zaminida ikdiz otib, tomchi suvdan kuch oladi. Sahro shamollarida mustahkam chayir va bardoshli bo'lib qoladi.

Kiyev Knyazining rivoyatiga ko’ra, shaharga bostiriv kirgan ko’chmanchilar bilan jang qilish oldidan shaharni mudafo qilish rejasini tuzish uchun ulkan eman o’sgan joy Dnepr qirg’og’iga chiqishganlar. Shuningdek Buxoro, Xorazm, Xiva askarlari va lashkarboshilari o’z yig’ilishlarining ming yillik chinor daraxti ostida o’zkazganlar.

Tabiat bilan aloqa qilish insonga chuqur estetik ta’sir qiladi. Lekin faoliyatning maxsus sohasi borki, tabiatning insonga ta’sirini o’z tiliga tarjima qilgan va o’zining vazifasi qilib olgan bu sanatdir.

Rassomlar kishilarga tabiat go’zalligini chuqur tushuntira berib, uni ayniqsa ematsional his qiladilar. San’at tabiatni aks ettirib, bizning ba’zan nigohimizdan g’oyib bo’lishi mumkin bo’lgan narsalarni ochib beradi. Kengaytiradi, chuqurlashtiradi, ona yer go’zalligi haqidagi tasavvurlarimizni sayqallaydi. Senga yaqin va o’z uyingdek qadrdon bo’lgan diyor tabiatni sen sevib boshqa billat kishilari, ularning qadrdor o’lkasi, ular bilan uzviy bog’langan barcha narsalarga muhabbatni ham bilib olasan. Ular bilan o’z halqing tarixi, uning butun hayoting bog’liqdir.

“Begona” tabiat bo’lmaydi deb to’g’ri aytilgan. Uning hammasi bizniki. Ona tabiat-bu ona yer , ona – Vatan qavm-qarindosh, avlod ajdodimiz. Har bir manzarachi rassom tabiatning biror-bir tomonini “kashf” etadi uni o’zicha hamda har bir davrni har xil ko’radi. I. I. Shishkin va I. I. Levitan rossiya o’rta mintaqasining go’zal va maftunkor tabiatni M. S. Saryon Armanistonning yorqin va go’zal tabiatini, O’. T. Tansiqboyev – O’zbekiston go’zalliklarini tasvirlaydi.

Tabiat juda ko’p narsalarni in’om etadi ammo bunga javob etibor, muhabbat va g’amx’orlik talab qiladi. Bu bizning xususiy vijdonimiz sadosidir. Madaniyatli ma’naviy kamol topgan inson uchun ona-vatan tabiatini muhofaza qilish to’g’risida g’amxorlik uning hayoti va faoliyatining uzviy qismidir.

Haqiqiy madaniyatli kishi tabiatning jamiyat taraqqiyotidagi ro’li va o’rnini chuqur tushunadi. Ko’pincha biz, masalan, sof havoning

qayerdan kelishini qanchalik o'ylamaylik, baribir sezmaymiz. U har sekuntda korbanat ongidirid bilan zaharlanib turadi a har holda tozaligicha qolaveradi. Barcha mamlakatlar tajribasning ko'rsatishicha, mustaqillik avtomabil yo'llarining rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shni mamlakatlar va dengizlarga chiqish maqsadida buyuk ipak yo'lini tiklashga qaratilgan yirik loyihalari bilan xalqaro hamdo'stlikka chiqqan. O'zbekiston, hozirgi 43000 dan ortiq kilomatr avtomobil yo'llariga egadir. Bu yo'llarda qatnayotgan transportlardan chiqadigan zaharli gazlarni atmosferaga chiqarmaslik maqsadida, ikki tomonlama serqatnov yo'llar o'rtasiga, shahardan shaharchaga bo'lgan masofada archa daraxtlari ekib yo'lovchilar ko'nglini ko'taruvchi kishiga estetik did bag'ishlovchi go'zallik hadya etuvchi, bir-biridan chiroyli gullar va turli ko'rinishdagi suptropik daraxtlar bir vaqtning o'zida transportlardan chiqayotgan gazlarni yutib, toza sof havo berib manzildan-manzilga yetkazib qo'yishda o'zining haqiqiy tabiat jarayonlarini o'tamoqda.

Ko'pincha bir masala sof havoning qayerdan kelishini qanchalik o'ylamaylik, baribir sezmaymiz. U har sekundda karbonat angidrid bilan zaharlanib turadi va yo'l o'rtasi hamda chetlariga ekilgan o'simlik va gullardan kisloradni tozalab beradi. Biroq biz bir tup daraxt ekish o'rniga, ko'pincha yaproqlarni yulib navdalarini sindirib, bizni zaharlanishdan asraydigan yashil do'stimizni navro'z qilamiz. Yerimiz esa Tur Xayerdal aytganidek, tozalaydigan trubaga ega emas. Bog'lar parklar va o'rmonlargina zararli gazlar bilan to'lgan shaharlar havosini tozalashga qadar xolos.

Yirik o'rmon massivlari zarafshon daryosi bo'ylab yastanib yotgan qo'riqxanalar shahrimiz atrofida yaratilayotgan bog'-rog'largina zararli gazlar bilan to'lgan shaharlar havosini tozalashga qodir xolos.

Respublikamizning ko'zga ko'ringan zomin, Baxmal, Urgut, Omon Quton, Yironqul va boshqa viloyat, tumanlardagi to'g yon bag'irlarida o'suvchi xushmanzara, daraxtlar va gullardan tashkil topgan massivlari bular o'ziga xos shaharlarning sanitariya chegarasi ularning

shifoxonasidan bir gektar o'rmon bir yilda 18 million kubametr havoni tozalashi, 70-tonnagacha changni filtlashi mumkinligi hisoblab chiqilgan.

O'sha yashil gektar bir soatda 200 kishi qancha nafas olsa, shuncha moqdordagi karbonat angidridni yutadi. Respublikamiz o'zaro olib borilayotgan yangi katta magistral yo'llar, ko'priklar va poytaxtimiz Toshkentdagi metropolitenlar kengaytirilib, yer sharini aylanib chiqadigan darajaadgi 43000 kilomatr Ipak yo'llarining shiroyiga chiroy qo'shishi, tabiat go'zalliklariga hamohang holdagi keng ravon bo'y cho'zgan devonli magistral yo'llar manzaralariga hiss qo'shib, amalga oshirilayotgan ezgulik ishlar prezidentimiz I. A. Karimov rahnamoligida amalga oshirilmoqda.

Chiroyiga-chiroy ko'rkiga-ko'rk qo'shib kundan kunga go'zal bo'lib borayotgan Respublikamiz bo'ylab bunyod etilayotgan yo'llar va ko'priklar ustidagi samoga bo'y cho'zgan bilan ustunli lamplalar, kechasi chorog'on, kunduzi yuksaklikk intilayotgandek olam-olam go'zallik hadya etishidan tashqar, ular atrofida ekilgan daraxt va lolazorlar, havoni kislorod bilan boyitibgina qolmay balki uni fitan sistlar va bardamligimiz eleksiri ionlar bilan to'ldiradi ham. Bunday tabiiy jarayonlar bilan to'yingan insoniyat, tabiatga bo'lgan munosabati uni his etishi undan zavqlanishi uchun zamin yaratib ana shu ona Vatan taraqqiyoti uchun mehnat qiladi. Kishilarning turli xil faoliyatlari natijasida atrofdagi kislorod miqdori bir yilda 10 milliard tonnage kamaymoqda. Xozirgi XXI asr texnika taraqqiyoti davrida tabiatni muhofaza qilish butun jahon obgor ummasining e'tiboriga qaratgan muammoga aylandi. Bu haqda konstitutsiya hozirgi zamon kishisining texnikaviy qudrati uning qo'lidan chiqib ketishi mumkin va o'zining ortib brogan kuchini tabiat bilan o'lhab borishda hushyor bo'lishi kerak. Gippokratning Vrach uchun aytgan "Avvalo shikast yetkazma" degan nasihati endilikda faqat insonning o'zigagina emas uni o'rab olgan narsalarga ham daxldordir. Fan-texnika taraqqiyoti jonli tabiatni nobud bo'lishi darajasiga yetmasligi kerak.

Mehnat-ijodkor insonning butun hayoti va faoliyatini asosi. Jamiyatning boyligi mehnat bilan yaratiladi. Mehnat boqadi, kiyintiradi, boshpana beradi. Jamiyat mavjud ekan hamisha shunday bo’lgan va shunday bo’lib keladi. Ijtimoiy burch, do’stlik, istiqlol tushunchasi mehnatda tug’iladi madaniyat yaratiladi va insonning o’zi ham madaniyatli bo’lib boradi. Insoniyatning eng ilg’or tafakkuri orzu qilgan uchrashuv-mehnat bilan madaniyatnig tarixiy cuhrashuvidir. Agar mehnat shodlik bo’lmasa-sen baxtli bo’lmaysan, o’zing uchun o’z manfaating uchun faxrlanish tuyg’usini sezmaysan, o’zingning insonlik qadr-qimmatiningni bilmaysan. Ijodkor shaxs mehnat jarayonida o’zining iste’dodi va qobiliyatini erkin namoyish qilishi uchun u yaxlit shaxs sifatida nomoyon bolishi lozim. Mehnat jarayoni, mehnat sharoiti madaniyati uning amaliy natijalari hamda hozrgi zamon ishlab chiqarishida band bo’lgan inson madaniyati-go’zallik olamidan ajralmasdir.

Ijodiy mehnatning birinchi va asosiy ijtimoiy sharti har bir kishining mehnati butun jamiyat forovonligi qaratilganini anglashdir. Bunga misol qilib 2000-2001-yillarda Samarqandlik, institutimiz professorlari mahobatli rang tasvirchi rassomlar E. Muhammadiev va N. Sultonovlar, A. Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitituti inter’erida ishlagan “Ma’naviyat bo’stoni” nomli devoriy surati asari, 1998-yil A. Isaev va X. Salohiddinov davlat chet tilalr Instetitu inter’eriga ishlangan asarining uzunligi 43 metr, Samarqand Qishloq xo’jaligi institute devoir inter’eriga 1999-2000-yillarda ishlangan “Ona zamon sahovati” asari Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofotiga sozovor bo’lgan X. Nazirov T. Boltaboev G. Kamolov S. Qoraboyevlar yaratgan “Sanoyi Nafisa” guruhi “Buyuk Sohibqiron” buyuk bunyodkorlar temuriylar taxiri davlat muzeyi inter’eridagi 1996-yilda ishlangan mahobatli rang tasvir asalari jamiyat forovonligiga qaratilgan ajdodlarimiz tarixi mavzusida yaratilgan 200 kv/m lik yirik asari B. Jalolovning “Adabiyot gumbazi ostida”

# O’quv uslubiy qism

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o’quv rejalari. O’quv dasturlari, darslik va o’quv qo’llanmalar tavsiflar va ularni yaratishga yangicha yondashuv.

O’quv reja-har bir mutaxasislik bo’yicha malaka va DTSda keltirilgan talabalarni ta’minlovchi muayyan ta’lim yo’nalishi bo’yicha o’quv faoliyati turlari, o’quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semester davomida o’zganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishi belgilaydigan hujjat.

O’quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o’quv dasturlari av mavzular rejasi tashkil etadi.

O’quv rejasi o’quv shakllarini o’quv predmetining ro’yxatini va hajmini, ularning o’quv haftalari, yarim yilliklari bo’yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo’lajak mutaxasislarni o’quv predmetlari kasbiy va umum ta’lim tayyorgaligi orasida o’zaro bog’liqlikni ta’minlovchi me’moriy hujjat.

O’quv rejasining moduli-uzliksiz ta’lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini eks ettiruvchi o’quv rejasini taqdim etish shakli.

Ta’lim muassasalari uchun mo’ljallangan o’quv rejasi ishlab chiqiladi va tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

O’quv rejasi ta’lim muassasi ma’muriyatiga yuboriladi hamda mazkur reja asosida o’quv jadvali tuziladi.

O’quv jadvali hafta davomida o’qitiladigan o’quv fanlarining nomi va ularga ajratilgan soatlar miqdori ko’rsatiladi.

O’quv fani-ta’lim muassasalarida o’rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatning muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar o’quv va ko’nikmalar tizimi. O’quv fani dasturi ham xuddi o’quv rejasi kabi muhim davlat hujjati bo’lib, unda muayyan o’quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o’quv yili davomida ta’lim

oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv fani dasturi-ta'lim mazmni uning ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishing eng maqbul normative hujjat.

O'quv fani dasturi tegishli ta'lim (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oily ta'lim) turdagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir.

Dastur tushutirish xatida o'quv predmetining ahamiyati uning fanlar tizimida tutgan o'rni ular o'rtasidagi aloqadorlik materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari o'rganiladi. O'qitish (ta'lim) metodlariga vositalari qo'llashga doir tavsiyalar beriladi. Soatlar hisobini mosli o'rinlarda o'zlashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

O'quv dasturidagi material ta'lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanalanadi va tasdiqlanadi.

O'quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatiga egailigi.
2. Dastur mazmunining ijtimoiy g'oyaviy xususiyatga egaligi.
3. Nazariy g'oyalarning amaliyot bilan birligi.
4. Dastur mazmunining ijtimoiy tarixiy xusisiyatga egaligi va old g'oyaga asoslanganligi.
5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo'lishi.
6. O'quv predmetlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik bog'lanishining mavjudligi.
7. O'quv dasturi tayyorlashdagi ta'lim oluvchilarning psixologiyasi va ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olish.

Demak o'quv rajasi va dasturi ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim oluvchilar jamoalarining so'zsiz amal qilishlari lozim bo'lgan davlat hujjatlaridir.

Ta'lim jarayoni samarali olib boorish uchun bularga mos darsliklar tayyorlanadi. Har bir o'quv predmetining mazmunini DTS va o'quv rejasi ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob (dasrlik) yoziladi.

Darslik-DTS o'quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singdirilgan muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogic tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o'qiruvchi darslikda ta'lim oluvchilar bajarilishi kerak bo'lgan o'quv jarayonining ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, ta'lim oluvchilar uchun mavzularni o'qib , undagi topshiriqlarni ma'lum harakatalr ko'rinishida bajarishadi: tekshiradi, yechadi, javob beradi va hakoza.

